Bugungi kunda globallashuv va texnologik taraqqiyot sur'atlarining keskin jadallashuvi natijasida davlatlararo munosabatlar misli ko'rilmagan darajaga yetdi. Endilikda bir mamlakat chegaralari doirasida qabul qilinadigan qarorlar va amalga oshiriladigan faoliyat faqatgina o'sha hudud bilan cheklanib qolmay, balki boshqa davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hamda ekologik holatiga ham bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur fenomen ilmiy doktrinada "transchegaraviy ta'sir" tushunchasi orqali ifodalanadi. Ushbu ta'sirlar ikki tomonlama (bir davlatdan boshqasiga) yoki ko'p tomonlama (bir davlatdan bir nechta davlatlarga) xarakterga ega bo'lishi mumkin. Ular xususiy va davlat mulkiga, shuningdek, global umumiy resurslarga *(global commons)* ham ta'sir qilishi mumkin (Shaw, 2021). Raqamli ta'sir yoki kiberoperatsiyalar, makroiqtisodiy siyosatning "qo'shni davlatni qashshoqlashtirish" effekti, daryolarda to'g'onlar qurilishining quyi oqim mamlakatlariga ta'siri, bularning barchasi xalqaro-huquqiy tartibga solishni talab etuvchi zamonaviy transchegaraviy ta'sir shakllaridir.

Shu bois ushbu mavzuni tizimli tadqiq etish va huquqiy jihatdan tasniflash bugungi kun tartibidagi dolzarb nazariy hamda amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – transchegaraviy ta'sirning xalqaro huquqdagi turlari va huquqiy tasnifini keng qamrovli tahlil qilish, mavjud normativ bazadagi kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga doir ilmiy-nazariy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shunga ko'ra, tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan: birinchidan, transchegaraviy ta'sirning huquqiy mohiyatini belgilovchi xalqaro

hujjatlar va doktrinal manbalardagi ta'riflarni tahlil qilish; ikkinchidan, mavjud normativ tasnif tizimlarining qamrovi va samaradorligini baholash; uchinchidan, kibermakon va moliyaviy sanksiyalar kabi yangi sohalarda xalqaro-huquqiy tartibga solish imkoniyatlarini oʻrganish. Xalqaro huquq adabiyotlarida ushbu masala koʻpincha alohida tarmoqlar kesimida koʻrib chiqilgan boʻlib, kompleks va tarmoqlararo huquqiy tasnif hali tizimlashtirilmagan. Aynan ushbu ilmiy boʻshliqni toʻldirish mazkur tadqiqotning asosiy yangiligini tashkil etadi.

Transchegaraviy ta'sir muammosi xalqaro huquq nazariyasida bir necha yoʻnalishda oʻrganib kelingan. Xalqaro huquq, ayniqsa, xalqaro ekologiya huquqi sohasida dunyoda tanilgan eng nufuzli olimlar F. Sands va J. Pil oʻzlarining "Xalqaro ekologik huquq tamoyillari" (*Principles of International Environmental Law*) nomli asarida "zarar yetkazmaslik" *(no harm)* tamoyilini tahlil qilib, transchegaraviy ekologik zararning huquqiy oqibatlarini batafsil yoritganlar (Sands & Peel, 2018). Ushbu asar ekologik sohadagi normativ tasnifning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Y. Braunli (Brownlie, 2008) va J. Krouford (Crawford, 2019) davlatlarning xalqaro javobgarligi instituti transchegaraviy ta'sirning barcha turlarini qamrab olish mumkinligi haqidagi konsepsiyani ilgari surgan hamda BMT Xalqaro huquq komissiyasining 2001-yilgi "Davlatlarning xalqaro huquqbuzarlik uchun javobgarligi toʻgʻrisida"gi maqolalari loyihasini ilmiy jihatdan tahlil qilgan. M. Shou (Shaw, 2021) esa xalqaro huquqning umumiy nazariyasi doirasida BMT Xalqaro sudining amaliyotini oʻrganib, transchegaraviy ta'sirga nisbatan turli davlatlarning huquqiy pozitsiyalarini qiyoslagan.

P. Birni, A. Boyl va K. Redgvell (Birnie, Boyle va Redgwell, 2009) xalqaro ekologik huquqning keng qamrovli tahlilini amalga oshirib, Espoo konvensiyasi, Rio va Stokgolm deklaratsiyalari asosida transchegaraviy ta'sirning ekologik modellarini tizimlashtirganlar, biroq uning moliyaviy va raqamli shakllarini qamrab olmaganlar. M. Shmitt tahriri ostida tayyorlangan "Tallinn qoʻllanmasi" (Schmitt, 2013) kiberoperatsiyalarga nisbatan xalqaro huquq normalarining qoʻllanishi boʻyicha muhim nazariy asos yaratgan boʻlsa-da, ushbu hujjat majburiy kuchga ega emas. J. Stiglis (Stiglitz, 2002) moliyaviy globallashuv kontekstida milliy iqtisodiy siyosatning boshqa davlatlarga koʻrsatadigan transchegaraviy oqibatlarini ochib bergan, ammo masalaning sof huquqiy tasnifiga kam e'tibor qaratgan. Voigt (2014) esa barqaror rivojlanish va transchegaraviy ta'sir oʻrtasidagi normativ bogʻliqlikni tahlil qilgan. Mazkur mualliflar asarlarining qiyosiy tahlili shuni koʻrsatadiki, ekologik soha tizimli oʻrganilgan va nisbatan yaxlit huquqiy bazaga ega boʻlsa-da, raqamli ta'sir sohasi eng kam tadqiq etilgan va normativ jihatdan eng zaif yoʻnalish boʻlib qolmoqda. Bundan tashqari, tarmoqlararo *(cross-sectoral)* tizimli tasnifni oʻzida aks ettiruvchi yagona xalqaro konvensiya yoki universal doktrina hali shakllanmagan.

**Metodlar**

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil metodi orqali turli xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilik tizimlarida transchegaraviy ta'sirni tartibga soluvchi normalar qiyosiy jihatdan oʻrganildi. Ushbu metod turli huquqiy tizimlar oʻrtasidagi umumiy va farqli jihatlarni, shuningdek, mavjud normativ boʻshliqlarni aniqlash imkonini berdi. Tizimli tahlil metodi vositasida xalqaro huquq normalari yaxlit bir tizim sifatida koʻrib chiqildi, ularning oʻzaro bogʻliqligi hamda ichki qarama-qarshiliklari aniqlanib, sohadagi umumiy holatga huquqiy baho berildi. Shuningdek, tadqiqotda tarixiy-huquqiy metoddan ham foydalanilgan boʻlib, u orqali transchegaraviy ta'sir tushunchasining vujudga kelishi va rivojlanish evolyutsiyasi bosqichma-bosqich tahlil qilindi. Normativ-huquqiy tahlil metodi yordamida esa tegishli xalqaro shartnomalar, rezolyutsiyalar va sud qarorlarining mazmun-mohiyati huquqiy jihatdan izchil va tizimli oʻrganildi.

Mazkur tadqiqot toʻrtta ketma-ket bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda transchegaraviy ta'sirga oid BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyalari, BMT Xalqaro sudi va arbitraj qarorlari hamda Xalqaro huquq komissiyasining loyiha hujjatlari kabi xalqaro shartnomaviy-huquqiy manbalar toʻplandi va tizimlashtirildi. Ikkinchi bosqichda ekologik, iqtisodiy-moliyaviy va raqamli ta'sir turlarining huquqiy tavsifi qiyosiy jihatdan koʻrib chiqildi. Uchinchi bosqichda mavjud xalqaro-huquqiy bazaning qamrovi va samaradorligi baholandi. Toʻrtinchi bosqichda esa tadqiqot natijalari umumlashtirilib, tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqotning obyekti

sifatida xalqaro huquqda transchegaraviy ta'sirni tartibga soluvchi normativ-huquqiy mexanizmlar belgilandi. Tadqiqotning predmetini esa ushbu mexanizmlarning tasnifi, o'zaro aloqadorligi va ularning samaradorlik darajasi tashkil etadi.

**Natijalar**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy xalqaro huquqda transchegaraviy ta'sirning kamida to'rtta asosiy turi mavjud bo'lib, ularning huquqiy tartibga solinish darajasi o'zaro farq qiladi.

Tabiat chegara bilmaydi, hayvonot va o'simliklar dunyosi, suv va havo ifloslanishi hamda iqlim o'zgarishi kabi jarayonlarni siyosiy chegaralar bilan to'xtatib bo'lmaydi. Ekologik transchegaraviy ta'sir qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarning kamayishi, ifloslanish va chiqindi oqimlari hamda ekologik tovarlar va xizmatlar savdosini qamrab oladi. Shu bilan birga, iqlimga global miqyosda ta'sir qiluvchi omillar (masalan, $CO_2$ emissiyalari) va faqat lokal ta'sir ko'rsatuvchi omillarni (masalan, qo'shni davlatlar hududiga tarqaladigan mahalliy havo ifloslanishi) o'zaro farqlash muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar yarim tayyor va tayyor mahsulotlar importini ko'paytirib, o'z iqtisodiyotlarini xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirmoqdalar. Tashqi tomondan ushbu davlatlar ilgarigiga nisbatan resurs tejamkorroq bo'lib ko'rinsa-da, aslida ular boshqa mamlakatlarning moddiy resurslariga tayanadi. Binobarin, materiallarni qazib olish, qayta ishlash hamda tashish jarayonlaridagi salbiy ekologik ta'sir boshqa hududlarda ro'y beradi. Biologik xilma-xillik ham global transchegaraviy ahamiyatga ega: masalan, tropik yog'ochlar importi, uzoq o'rmonlardagi turlar xilma-xilligiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ekologik transchegaraviy ta'sir xalqaro hududga eng yaxshi o'rganilgan va eng qat'iy huquqiy bazaga ega yo'nalish hisoblanadi. *"Sic utere tuo ut alienum non laedas"* (O'z mulkingdan shunday foydalanginki, boshqaga zarar yetmasin) prinsipi xalqaro odat huquqining ajralmas qismi sifatida tan olingan. *"Trail Smelter"* ishi ushbu tamoyilning arbitraj amaliyotida qo'llanishi uchun birinchi aniq pretsedentni yaratdi (Trail Smelter Arbitration (United States v. Canada), 1941). 1972-yilgi Stokgolm deklaratsiyasining 21-prinsipi va 1992-yilgi Rio deklaratsiyasining 2-prinsipi davlatlarning o'z yurisdiksiyasidagi faoliyat boshqa davlatlar muhitiga va xalqaro ahamiyatga ega umumiy hududlarga zarar yetkazmasligi kerakligini qat'iy belgiladi (United Nations, 1972; United Nations, 1992). 1991-yilgi Espoo konvensiyasi esa transchegaraviy kontekstda atrof-muhitga ta'sirini oldindan baholash majburiyatini joriy etib, ekologik ta'sir sohasida eng samarali protsessual mexanizmni shakllantirdi (UNECE, 1991). BMT Xalqaro sudining "Pulp Mills" (Pulpa zavodlari) ishi bo'yicha qarori esa *"due diligence"* (lozim darajadagi ehtiyotkorlik) majburiyatini transchegaraviy ekologik ta'sir sohasiga tatbiq etib, davlatlarning nafaqat zararni bartaraf etish, balki uning oldini olish majburiyatini ham mustahkamladi (Pulp Mills on the River Uruguay, 2010). Sudning "Kosta-Rika Nikaraguaga qarshi" ishi bo'yicha qarori esa transchegaraviy ekologik zarar yetkazilgan holatlarda zararni hisob-kitob qilish va qoplash (kompensatsiya) mexanizmlarini yanada aniqlashtirdi (Certain Activities Carried Out by Nicaragua in the Border Area, 2015).

Iqtisodiy-moliyaviy transchegaraviy ta'sir normativ jihatdan murakkab tuzilishga ega bo'lib, bir necha alohida rejimlar orqali tartibga solinadi. Bularga Jahon savdo tashkiloti (JST) doirasidagi ko'p tomonlama (multilateral) kelishuvlar, Ikki tomonlama investitsiya shartnomalari (BIT) va xalqaro valyuta tizimining huquqiy normalari kiradi. Biroq ushbu rejimlar o'rtasida muvofiqlashtiruvchi yagona mexanizm mavjud emas. Masalan, bir davlatning o'z milliy valyutasini devalvatsiya qilishi boshqa mamlakatlar iqtisodiyotiga jiddiy transchegaraviy ta'sir ko'rsatishi mumkin, ammo bunday holatlar ko'pincha xalqaro huquq doirasida emas, balki siyosiy muzokaralar orqali hal etiladi (Stiglitz, 2002). Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) Nizomining IV moddasi valyuta kursi siyosatiga nisbatan muayyan cheklovlar o'rnatgan bo'lsa-da, mazkur norma amaliyotda yetarli darajada samara bermayapti.

Transchegaraviy moliyaviy oqimlar *(financial flows)* iqtisodiy-moliyaviy ta'sirning eng muhim ko'rinishlaridan biridir. Moliyaviy resurslar va investitsiyalarning transchegaraviy harakati global iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar rasmiy rivojlanish yordami (ODA), xayriya jamg'armalari va xususiy kapital oqimlari orqali rivojlanayotgan mam-

lakatlarni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi mumkin. 2015-yilgi Addis-Abeba harakatlar dasturida belgilanganidek, xalqaro moliyaviy oqimlar bir nechta manbalardan – filantropik tashkilotlar, davlat agentliklari (ODA va boshqa rasmiy oqimlar – OOF), transchegaraviy pul o‘tkazmalari *(remittances)* hamda xususiy sektordan (xorijiy to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar – FDI) shakllanadi.

Biroq bunday moliyaviy oqimlar har doim ham ijobiy samara beravermaydi. Boshqaruv va nazorat institutlari yetarlicha rivojlanmagan mamlakatlarga yo‘naltirilgan moliyaviy ko‘mak ko‘p hollarda samarasiz sarflanadi. Bundan tashqari, soliq rejimlaridagi tafovutlar va savdo oqimlari monitoringining mukammal emasligi soliqdan bo‘yin tovlash amaliyotini yuzaga keltirib, kapitalning soliq oazislariga oqib ketishiga sharoit yaratadi. Eng achinarlisi, korrupsiya, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmdan moliyalashtirishdan kelib chiquvchi noqonuniy moliyaviy oqimlar rivojlanayotgan davlatlarning Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishish uchun zarur bo‘lgan ichki resurslar zaiflashtirib qo‘ymoqda.

Raqamli (kiber) transchegaraviy ta’sir – transchegaraviy ta’sirning eng yangi va eng kam tartibga solingan turi hisoblanadi. Bu sohada yagona majburiy xalqaro konvensiya hali mavjud emas. “Tallinn qo‘llanmasi” NATO ekspertlar guruhi bilan birgalikda tayyorlanib, kiberoperatsiyalarga nisbatan xalqaro huquqning qo‘llanishi masalasida nazariy ko‘rsatmalar berdi (Schmitt, 2013). Biroq ushbu hujjat davlatlar uchun majburiy emas va uning ko‘plab qoidalariga nisbatan davlatlar o‘rtasida kelishuv yo‘q. BMT Hukumat ekspertlari guruhi (GGE) 2021-yilgi hisobotida kibermakon sohasida xalqaro huquqning qo‘llanishiga oid bir qator tamoyillarni qabul qildi, biroq ushbu hujjat ham majburiy kuchga ega emas (United Nations Group of Governmental Experts, 2021).

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy empirik xulosalar asoslandi: birinchidan, xalqaro huquqda transchegaraviy ta’sirning izchil va umumlashgan normativ tasnifi mavjud emas; ikkinchidan, turli ta’sir turlari uchun turli shartnomaviy rejimlar mavjud bo‘lib, ularning o‘rtasida muvofiqlashtiruv mexanizmi yetarli darajada shakllanmagan; uchinchidan, raqamli va informatsion ta’sir sohasi eng past normativ qamrov darajasiga ega; to‘rtinchidan, ekologik ta’sir sohasi eng rivojlangan normativ tizimga ega bo‘lib, u boshqa sohalar uchun model vazifasini o‘tashi mumkin.

1945-yildan to bugungi kunga qadar shakllangan xalqaro-huquqiy amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, transchegaraviy ta’sir instituti dastlab ekologik va tabiiy resurslardan foydalanishga oid munosabatlar doirasida rivojlangan. Xalqaro huquq doktrinasida ham transchegaraviy ta’sir tushunchasi asosan transchegaraviy ekologik zarar, atrof-muhitning ifloslanishi, transchegaraviy suv resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq normalar asosida shakllangani e’tirof etiladi. Aksincha, valyuta kursi yoki moliyaviy transchegaraviy ta’sir muammolari ushbu davr mobaynida xalqaro huquq kun tartibiga juda kam hollarda kiritilgan. Kibermakondagi transchegaraviy ta’sirga oid nizolar esa rasmiy xalqaro sud organlari (masalan, BMT Xalqaro sudi) tomonidan hali biror marta ham ko‘rib chiqilmagan. Ushbu tahlil natijalari xalqaro tartibga solish tizimidagi jiddiy disproporsiya (nomutanosiblik)ni yaqqol namoyon etadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ekologik sohadagi amaldagi konvensiyalar va deklaratsiyalar mukammal protsessual hamda moddiy normalarni yaratgan bo‘lsa, iqtisodiy-moliyaviy sohadagi qoidalar tarqoq va o‘zaro muvofiqlashtirilmagan. Raqamli sohada esa majburiy normalar yo‘qligi davlatlararo hamkorlikni va xavfsizlikni ta’minlashni jiddiy ravishda qiyinlashtirmoqda.

**Muhokama**

Transchegaraviy ta’sirni tasniflash masalasida xalqaro huquq doktrinasida bir necha konseptual yondashuvlar shakllangan. Birinchi yondashuv vakillari transchegaraviy ta’sir fenomenini asosan xalqaro ekologik huquq kontekstida tahlil qiladilar. Xususan, F. Sands va J. Pil transchegaraviy ta’sir institutining normativ evolyutsiyasi ko‘proq atrof-muhitni muhofaza qilish, transchegaraviy ifloslanish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish munosabatlari bilan bog‘liq holda kechganini ta’kidlaydilar (Sands & Peel, 2018). Haqiqatan ham, xalqaro huquqdagi transchegaraviy zarar yetkazmaslikka oid fundamental normalar, jumladan, “Trail Smelter” arbitraj ishi pretsedenti, Stokgolm va Rio deklaratsiyalari hamda BMT Xalqaro sudining boy amaliyoti aynan ekologik munosabatlar doirasida shakllangan va rivojlangan (Sands & Peel, 2018). Biroq mazkur yon-


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

dashuvning asosiy cheklangan jihati shundaki, u zamonaviy xalqaro munosabatlarda kundan kunga dolzarblashib borayotgan raqamli, iqtisodiy va moliyaviy xarakterdagi transchegaraviy ta'sirlarni to'liq qamrab olish imkoniyatiga ega emas.

Transchegaraviy ta'sirni tasniflashdagi ikkinchi yondashuv davlatlarning xalqaro-huquqiy javobgarligi doktrinasiga asoslanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, transchegaraviy ta'sirning har qanday turi xalqaro huquqbuzarlik hamda davlat javobgarligi mexanizmlari doirasida baholanishi lozim (Crawford, 2019; Brownlie, 2008). Mazkur konsepsiya nazariy jihatdan universal xarakterga ega bo'lsa-da, amaliyotda sababiy bog'liqlik *(causation),* zarar *(harm)* va harakat yoki harakatsizlikni davlatga nisbat berish *(attribution)* kabi elementlarni isbotlash o'rta murakkabligicha qolmoqda. Ayniqsa, kibermakonda amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'yicha hujum manbasini muayyan davlatga bog'lash, xususan, jarayonda davlat bilan aloqador bo'lishi mumkin bo'lgan nodavlat subyektlar ishtirok etgan hollarda, zamonaviy xalqaro huquqning bahsli masalalaridan biri hisoblanadi (Schmitt, 2017). Xalqaro huquqda qonunga zid qilmishni davlatga nisbat berish masalasi asosan BMT Xalqaro huquq komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan "Davlatlarning xalqaro huquqqa xilof qilmishlari uchun javobgarligi to'g'risida"gi maqolalar loyihasi (ARSIWA) qoidalari asosida tartibga solinadi (International Law Commission, 2001).

Mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra, transchegaraviy ta'sirni shunchaki tarmoqlar bo'yicha tasniflashdan ko'ra, uni universal normativ mezonlar asosida baholash metodologik jihatdan maqsadga muvofiqdir. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot doirasida muallif transchegaraviy ta'sirlarni ularning xususiyati va huquqiy oqibatlaridan kelib chiqib tasniflashni taklif etadi. Bunda uchta asosiy mezondan foydalanish lozim: birinchidan, ta'sirning sezilarlilik darajasi *(significance threshold);* ikkinchidan, transchegaraviy zararning yoki salbiy oqibatning mavjudligi; uchinchidan, davlatning lozim darajadagi ehtiyotkorlik *(due diligence)* majburiyatiga rioya etilgan yoki etilmaganligi.

Xalqaro Sud amaliyotida *due diligence* majburiyati davlatlardan o'z yurisdiksiyasi ostidagi hududlarda amalga oshirilayotgan faoliyat boshqa davlatlarga sezilarli zarar yetkazmasligini ta'minlash yo'lida mavjud barcha oqilona va zarur choralarni ko'rishni talab etadi hamda bu davlatning umumiy xalqaro-huquqiy majburiyati sifatida e'tirof etiladi (Pulp Mills on the River Uruguay, 2010). Bunday konseptual yondashuv turli sohalardagi transchegaraviy ta'sirlarni yagona xalqaro-huquqiy mezonlar asosida baholash hamda tizimlashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida bir qator metodologik va huquqiy muammolar ham aniqlandi. Birinchi muammo terminologik xilma-xillik bilan bog'liq. Xalqaro huquqiy hujjatlarda *"transboundary harm"* (transchegaraviy zarar), *"transboundary impact"* (transchegaraviy ta'sir), *"cross-border effect"* (transchegaraviy samara), *"transfrontier pollution"* (transchegaraviy ifloslanish) kabi turlicha atamalar qo'llanmoqda. Muallifning fikricha, mazkur terminlar mazmun jihatidan o'xshash bo'lsa-da, ularning qo'llanish sohasi va huquqiy oqibatlari har doim ham bir xil emas. Bu holat yagona tizimli tasnif ishlab chiqishni murakkablashtiradi. Ikkinchi muammo kibermakon sohasida xalqaro konsensusning (yakdillikning) yetarli darajada shakllanmaganligidir. Davlatlarning aksariyati kiberoperatsiyalar bo'yicha o'z rasmiy huquqiy pozitsiyalarini to'liq e'lon qilmaydi va amaliyotlarini shaffof tarzda bayon etishdan qochadi. Bu esa mavjud holatni to'liq tahlil qilish hamda amaliyotni tizimli ravishda baholashga to'sqinlik qiladi.

Uchinchi muammo shundaki, iqtisodiy transchegaraviy ta'sirlarni huquqiy jihatdan tasniflash ekologik ta'sirlarga nisbatan ancha murakkabdir. Buning asosiy sababi – iqtisodiy siyosat vositalari (tariflar, kapital oqimlarini tartibga solish, monetar va fiskal choralar) davlatlarning milliy rivojlanish strategiyasi hamda iqtisodiy suverenitetining ajralmas qismi hisoblanishidir. Xalqaro iqtisodiy boshqaruvga oid tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davlatlarning o'z mustaqil harakat maydonini *("policy space")* saqlab qolishga intilishi normativ universallashuv jarayonini cheklab qo'yadi (United Nations Conference on Trade and Development, 2014). Shu sababli ushbu sohada ochiq huquqiy amaliyot va pretsedentlar soni nisbatan cheklangan.

To'rtinchi muammo – xalqaro sudlar va arbitraj institutlari amaliyotida kiberta'sirlar, moliyaviy sanksiyalar va boshqa yangi avlod

transchegaraviy xavflari bo'yicha hali yetarli darajada shakllangan sud pretsedentlarining mavjud emasligidir. Natijada mazkur sohalarda normativ qoidalarning mazmunini aniqlashda davlatlar amaliyoti, doktrinal manbalar va *"soft law"* hujjatlariga murojaat qilish zarurati yuzaga keladi.

Muallifning fikricha, mavjud tizimli muammolarni fundamental hal etish uchun xalqaro huquqda transchegaraviy ta'sirning yagona, tarmoqlararo universal normativ tasnifini o'zida aks ettiruvchi Transchegaraviy ta'sirning barcha ko'rinishlarini tartibga solish to'g'risidagi konvensiya loyihasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Mintaqaviy miqyosda esa Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida transchegaraviy (ayniqsa, ekologik, suv-energetika va kiberxavfsizlik) muammolar bo'yicha hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda amaldagi ko'p tomonlama shartnomaviy-huquqiy bazani takomillashtirish zarur deb hisoblanadi.

**Xulosa**

Olib borilgan tadqiqot natijalari hamda tizimli tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, zamonaviy xalqaro huquqda transchegaraviy ta'sirning ekologik, iqtisodiy-moliyaviy va raqamli (kiber) kabi asosiy turlari mavjud bo'lib, ularning xalqaro-huquqiy tartibga solinish darajasi o'zaro farq qiladi. Ekologik soha tizimli normativ bazaga ega bo'lgan bir vaqtda, raqamli makonni huquqiy tartibga solish darajasi o'ta pastligicha qolmoqda. Global huquqiy tizimdagi ushbu nomutanosiblikni bartaraf etish zamon talabidir.

Ikkinchidan, xalqaro huquq doktrinasida transchegaraviy ta'sirning yagona, tarmoqlararo normativ tasnifini yaratish zaruriyati mavjud. Mavjud sektor bo'yicha tasniflar o'zaro muvofiq emas va ularning o'rtasidagi muvofiqlashtiruv mexanizmi samarali ishlamayapti. Buning uchun BMT doirasida maxsus Transchegaraviy ta'sirning barcha ko'rinishlarini tartibga solish to'g'risidagi konvensiya loyihasini ishlab chiqish lozim.

Uchinchidan, raqamli ta'sir sohasidagi normativ bo'shliqni bartaraf etish uchun majburiy xalqaro konvensiya tuzish zarur. "Tallinn qo'llanmasi" kuchga ega emasligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Bu yo'nalishda BMTning Hukumat ekspertlari guruhi (GGE) tomonidan ilgari surilgan tamoyillarni konvensiya shaklidagi rasmiy ko'p tomonlama shartnomaga aylantirish va unga davlatlarning keng ko'lamli a'zoligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchidan, xalqaro ommaviy huquqning fundamental "zarar yetkazmaslik" *(no harm)* tamoyilini zamonaviy gibrid tahdidlarga moslashtirish talab etiladi. Ushbu tamoyil nafaqat ekologiyaga, balki transchegaraviy raqamli infratuzilmaga, makroiqtisodiy siyosatga va yangi avlodga mansub boshqa transchegaraviy omillarga ham tatbiq etilishi lozim. Bu borada BMT Xalqaro sudi va xalqaro arbitraj organlarining pretsedentlar shakllantirishdagi rolini kuchaytirish lozim.

Beshinchidan, O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlari uchun transchegaraviy ta'sirni tartibga soluvchi institutsional va normativ-huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Amudaryo va Sirdaryo havzasidagi suv resurslaridan oqilona foydalanish, yagona energiya halqasi hamda mintaqaviy raqamli infratuzilma integratsiyasi – transchegaraviy ta'sir muammolarini milliy xavfsizlik darajasiga ko'taradi. Mintaqa davlatlari o'rtasidagi munosabatlarda huquqiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiluvchi maxsus ikki va ko'p tomonlama shartnomaviv-huquqiy mexanizmlarni shakllantirish zarur.

## REFERENCES

Birnie, P., Boyle, A., & Redgwell, C. (2009). *International law and the environment* (3rd ed.). Oxford University Press.

Brownlie, I. (2008). *Principles of public international law* (7th ed.). Oxford University Press.

Crawford, J. (2019). *Brownlie's principles of public international law* (9th ed.). Oxford University Press. https://doi.org/10.1093/he/9780198737216.001.0001

Corfu Channel (United Kingdom v. Albania), Judgment, 1949 I.C.J. 4 (Apr. 9). https://www.icj-cij.org/case/1

Pulp Mills on the River Uruguay (Argentina v. Uruguay), Judgment, 2010 I.C.J. 14 (Apr. 20). https://www.icj-cij.org/case/135

Certain Activities Carried Out by Nicaragua in the Border Area (Costa Rica v. Nicaragua), Judgment, 2015 I.C.J. 665 (Dec. 16). https://www.icj-cij.org/case/150

International Law Commission. (2001). *Draft articles on prevention of transboundary harm from hazardous activities.* In *Yearbook of the International Law Commission, 2001, Vol. II, Part Two (pp. 148–170).* United Nations. https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/draft_articles/9_7_2001.pdf.

Kuznetsova, E., & Petrov, A. (2020). Transboundary digital harm and state responsibility under international law. *Journal of International Law and International Relations, 16*(2), 45–68. https://doi.org/10.21747/jiir.2020.2.3

Sands, P., & Peel, J. (2018). *Principles of international environmental law* (4th ed.). Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/9781316661253

Schmitt, M. N. (Ed.). (2013). *Tallinn manual on the international law applicable to cyber warfare*. Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9781139169288

Schmitt, M. N. (Ed.). (2017). *Tallinn manual 2.0 on the international law applicable to cyber operations*. Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/9781316822524

Shaw, M. N. (2021). *International law* (9th ed.). Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/9781108774703

Stiglitz, J. E. (2002). *Globalization and its discontents*. W. W. Norton & Company

Trail Smelter Arbitration (United States v. Canada), 3 R.I.A.A. 1905 (Arb. Trib. 1941). https://legal.un.org/riaa/cases/vol_III/1905-1982.pdf

UNECE. (1991). *Convention on Environmental Impact Assessment in a Transboundary Context (Espoo Convention)*. United Nations Economic Commission for Europe. https://unece.org/environment-policy/espoo-convention

United Nations Conference on Trade and Development. (2014). *Trade and development report 2014: Global governance and policy space for development.* United Nations

United Nations Group of Governmental Experts. (2021). *Open-ended Working Group on Developments in the Field of Information and Telecommunications in the Context of International Security: Final Substantive Report*. United Nations General Assembly. https://undocs.org/A/76/135

United Nations. (1972). *Declaration of the United Nations Conference on the Human Environment (Stockholm Declaration)*. https://www.un.org/esa/dsd/resources/res_docsstockdec.shtml

United Nations. (1992). *Rio Declaration on Environment and Development*. https://www.un.org/documents/ga/conf151/aconf15126-1annex1.htm

Voigt, C. (Ed.). (2014). *Rule of law for nature: New dimensions and ideas in environmental law*. Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9781107337961

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

**2026-yil maxsus son**

VOLUME 10 / SPECIAL ISSUE / 2026

DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.SI.